



## **XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI**

2021 - yil 11 - avgust

VI-38-20-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

### **Jomboy tumanlararo iqtisodiy sudi raisi N.E.Tursunovanning sud tomonidan 2021-yilning 1-yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan axboroti to'g'risida**

Jomboy tumanlararo iqtisodiy sudining 2021-yilning 1-yarim yilligi davomida odil sudlovni amalga oshirish, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlarini, ularning huquqlarini poymol bo'lishini oldini olishni sud yo'li bilan himoya qilish, ish jarayonlarida hujjatlarni qonuniy rasmiylashtirish va qonunlarni ijrosini to'g'ri ta'minlashni amalga oshirishga doir faoliyati to'g'risidagi axborotini tinglab, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining XXXVIII-sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Jomboy tumanlararo iqtisodiy sudi raisi N.E.Tursunovanning 2021-yilning 1-yarim yilligi davomida tizimda odil sudlovni ta'minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalar yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jomboy tumanlararo iqtisodiy sudi raisi (E.Tursunova)ga:

sud organlari tizimida odil sudlovni ta'minlashda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

sudlarning faoliyatini erkinlashtirish, ularning mustaqilligini amalda ta'minlash;

sud jarayonida ochiqlik, oshkoralik va adolat tamoyillariga qat'iy amal qilinishini nazorat qilish;

inson huquqlarining buzilishiga, ularning qonuniy manfaat va erkinliklarini himoya qilishga nisbatan qat'iy javobgarlikni talab qilish, buzilgan huquqlarni tiklash bo'yicha barcha zaruriy choralarni ko'rish;

sudlar tomonidan qabul qilingan qarorlarning barqarorligini ta'minlash;

fuqarolarga sudlarga nisbatan ishonch hissini uyg'otish, sud jarayonlarida adolat tamoyillarini to'laqonli ta'minlash, aholining huquqiy savodxonligini oshirish borasida mahalla fuqarolar yig'inlarida uchrashuv, davra suhbatlari tashkil etish.

3.Xalq deputatlari tuman Kengashi har chorakda sud organlari tomonidan sud tizimida odil sudlovni ta'minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalar yuzasidan axborotlarini eshitib borish tizimiga qat'iy rioya etib borishi belgilansin.

4. Tuman hokimligi matbuot kotibi (A.Jabborov), "Bulung'ur hayoti" gazetasi (G'.O'rolov)ga sud organlari tomonidan odil sudlovni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining "Qonuniylikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi" (T.Rajabov) zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси



В.Важрамов